



IAU
INTERNATIONAL AGRICULTURE UNIVERSITY



In partnership with

Royal
Agricultural
University

International Agriculture University
University Street №2, 100164,
Kibray, Tashkent, Uzbekistan

Press Relis (28.04.2025)

Media aloqa:

Shahriyor Sadullayev +998 97 484 84 34

Sevara Tulyaganova + 998 90 959-16-76

Toshkent barqarorlikning jahon poytaxtiga aylandi

2025 yil 24–25 aprel kunlari Toshkentda “Hayot fanlari festivali” va “Barqaror rivojlanish bo‘yicha yosh yetakchilar uchrashuvi” bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbirda 57 ta mamlakatdan 90 nafar yosh barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha qiziquvchi ishtirokchilar hamda umumiy hisobda mingdan ortiq kishi qatnashdi.

“Ikki kun davomida Toshkent barqaror rivojlanishning jahon poytaxtiga aylandi”, — dedi BMTning O‘zbekistondagi doimiy hamkori, elchi Sabina Maxl dunyo bo‘ylab kelgan yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan jonli muhokama chog‘ida. Unda zamonaviy dunyodagi dolzarb muammolar va yoshlarning kelajak borasidagi kutilmalari, hayot va uzoq muddatli rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar muhokama qilindi.

Tadbir Xalqaro Qishloq Xo‘jaligi Universiteti (IAU) hamda Xalqaro Meta mutaxassislar instituti va ko‘plab tashkilotlar hamkorligida tashkil etildi. Tadbirni O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari Alisher Shukurov ochib berdi. IAU rektori, doktor Munira Aminova tadbir maqsadlari haqida gapirar ekan, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi so‘zlarini esladi: «Biz Yerni ajdodlarimizdan meros olmaymiz. Biz uni farzandlarimizdan qarzga olamiz».

BMTning FAO va TRRD (UNDP) tashkilotlari vakillari olib borilayotgan faoliyat va ulkan loyihalari haqida so‘zlab berishdi. Yevropa Ittifoqi vakili Mark Van Uytvank esa yaxshi amaliyotlar va Yevropa davlatlarining ko‘magi muhimligini ta’kidladi.

Festivalning maqsadi – universitetlarni jamiyat rivojlanishida faol ishtirokchiga aylantirish. Tadbir doirasida seminarlar, munozaralar, ko‘rgazmalar va mukofot topshirish marosimlari o‘tkazildi. Ilmiy festival dasturi «Yashil iqtisodiyot», oliy ta’limdagi muammolar, O‘zbekistonda va jahonda ayollarning roli, shuningdek, kelajak uchun rejalar kabi to‘rtta asosiy muhokamani o‘z ichiga oldi.

Yoshlar uchun tanishuv va birgalikda hordiq chiqarish imkoniyati ham bo‘ldi. Maxsus tomosha sifatida mashhur DJ Macarella chiqishi tashkil etildi. Shuningdek, Xalqaro Qishloq Xo‘jaligi Universitetida (IAU) Buyuk Britaniyaning Royal Agricultural University bilan hamkorlikda ingliz tilida ta’lim olish uchun 100 dan ortiq grand sertifikatlari topshirildi.

Hayot fanlari festivali Universitetda uchinchi marotaba o‘tkazildi. Uning tashabbuskori – Polsha vakili doktor Slavomir Vroblevski bu format universitetlar bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqalarning innovation yo‘li ekanligini ta’kidladi: “Ilmiy festivallar dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda ommaviy tadbirlar hisoblanadi. Ularning maqsadi universitetlarni jamoatchilik, maktablar, ommaviy axborot vositalari va kompaniyalar bilan bog‘lashdir. Ular tobora

ommalashib bormoqda, ayrimlari bir necha hafta davom etadi va 200 mingtacha mehmonni qabul qiladi!”.

Batafsil Universitetning rasmiy veb-saytida bilib olisshingiz mumkin: <https://iau.uz>